

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI BIRINCHI HIKOYA  
TAHLILI

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi

BuxDU Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

[Saidova\\_mohinur@mail.ru](mailto:Saidova_mohinur@mail.ru)

+998934752506

**Annotatsiya:** *shbu maqolada Navoiy hazratlarining “Sab’ai sayyor” dostonlarida keltirgan Axiy va Farrux haqidagi hikoya tahlil qilinadi. Bu hikoyada ikki mutlaqo bir-biriga begona bo’lgan insonlarning oliyjanoblighi va vafodorligi talqin etilgan.*

**Kalit So’zlar:** *Muruvvat, futuvvat, vafodorlik, oliyjanoblik, komil inson, saxovat, do’stlik, adolat.*

**Abstract:** *This article analyzes the story of Axiy and Farrukh, which is included in the “Sab’ai sayyor”. In this story, the nobilities and loyalties of two completely alien people are interpreted.*

**Key Words:** *Generosity, benefaction, loyalty, nobility, a perfect person, virtue, friendship, justice.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется история Ахия и Фарруха, вошедшая в сабаитский путевой эпос Хазрата Навои. В этой истории рассказывается о благородстве и верности совершенно незнакомых друг другу людей.*

**Ключевые слова:** *доброта, великодушие, верность, благородство, совершенный человек, великодушие, дружба, справедливость.*

Badiiy adabiyotimizda do’stlik va sodiqlik borasida yaratilgan asarlar, hikoyalar, ertaklar talaygina, ammo Alisher Navoiy o’zlarining “Besh xazina”(“Xamsa”) dostonidan o’rin olgan “Sab’ayi sayyor”da bu mavzuga alohida e’tibor berilgan. “Sab’ayi sayyor” dostonida asosiy qahramon Bahromshoh bo’lib, u Diloromdan ayrilgani va g’am-anduhga botib qolgani uchun Bahromning otasi unga 7 qasr qurdiradi. Bu 7 qasrda shoh Bahrom 7 iqlimdan kelgan malikalar bilan ko’ngilxushlik qiladi va shu bilan birga turli manzillardan kelgan musofirlarning hikoyalarini tinglaydi. Birinchi kuni qora qasrga boradi. Alisher Navoiy Bahromning xafaligi sababdan ham uni birinchi bo’lib qora qasrga yuboradi (Vaholanki, asar so’ngida Bahrom Diloromning vasliga yetganda oq qasrga kiradi). Bu qasrda u Hindistonlik sayyohdan Axiy va Farrux haqidagi hikoyani tinglaydi. Hikoyada ikki begona insonlarning taqdir taqozosi bilan tanishib qolishi va qiyomatli do’st bo’lishi bayon etilgan.

Hikoyatda halollik, to’g’rilik, oliyjanoblik, vafodorlikning ulug’ ko’rinishlari bayon etilgan. Axiy ismi jismiga mos tarzda saxovatpesha, muruvvat va futuvvatpesha inson

bo'ladi. Shu bilan bir qatorda Farrux ham oliy himmat va saxiy inson holida tasvirlanadi.

Asar farruxshohning hayotini hikoya qilish bilan boshlanadi. Keyinchalik u tushida bir malikani ko'rib sevib qoladi va uni izlab yo'lga chiqadi.

*Farrux uyg'ondi sekrib uyqudin,*

*Ko'zidin uyqu o'chti qayg'udin.*

*Har zamon pechutobi ortaredi,*

*Ko'nglining iztirobi ortaredi.*

Farrux yorga yetishish maqsadida Halab shahriga yo'l oladi va u yerda o'sha tushida ko'rgan suluv qizni ko'rib hushini yo'qotadi va bir polosga o'ranib yotganida uni Axiy ko'rib qoladi. Axiy muruvvatpesha insonlardan bo'ladi, u uyida bir mehmonxona qurib, u yerda ochlarni boqadi va ularga har doim yordam beradi. Keyin Axiy Farruxga ham yordam beradi va uyiga olib borib mehmon qiladi. Farrux aql-zakovatda tengsiz bo'lgani uchun Axiy uning ilmiga va tarbiyasiga qoyil qoladi. Qanday bo'lmasin, Farruxni qiynayotgan darddan uni xalos qilishga urunadi. Suhbat jarayonida Axiy Farrux tasvirlayotgan go'zal qiz o'zining xotini ekanini bilib qoladi va do'sti uchun o'z jufti -halolini taloq qilib, uni Farruxga uzoq qarindoshimiz deb tanishtirib o'z ayolini Farruxga nikohlab beradi. Farrux o'z yurtiga qaytadi va taxtga o'tiradi. Ammo, Farrux qizning yig'lashiga, o'zini azoblashiga chidayolmay undan buning sababini so'raganda, bu qiz Axiyning xotini ekanligini bilib qoladi. Farrux Axiyning mardligiga hayron qoladi va qizni o'z singliday ko'rib, do'stini izlaydi. Bu paytda Axiy ham bir qancha muammolarga uchrab, Hindeliga kelib qolgan bo'ladi va bir kuni Axiy Farruxning qora polosiga o'ranib yotganida Farrux uni tanib qoladi. Shunda ikki do'st topishishadi va Farrux yana qayta qizni Axiyning o'ziga nikohlab beradi. Shu tariqa ular qiyomatli do'st bo'lib, umrlarining oxirigacha bir-birlariga ko'mak berib uzoq umr kechiradilar.

*Bo'lubon buyla holidin ogoh,*

*Kisvatig'a tatabbu' ayladi shoh.*

*Chunki shah xil'ati qaro bo'ldi,*

*Qora kiymak ulus aro bo'ldi.*

*Qora rang elga toji torakdur,*

*Kim bu rang ichradur, muborakdur.*

Hikoya orqali Navoiy komilikka erishish va undan keyingina Haqqa yetishish mumkinligi haqida aytmoqchi. Ya'ni, komil inson bo'lish uchun har bir inson bir qancha bosqichlardan o'tishi kerak. Ma'lum bir qadamlarni bosib o'tgandan keyingina inson komilikka erishishi mumkin. Navoiy qaysidir ma'noda go'zal qiz tasviri orqali Allohni nazarda tutyapti. Farrux to bu qizga erishguncha anchagina yo'llarni bosib o'tadi va undan keyingina yoriga erisha oladi. Navoiy hazratlari Axiyni ham bu yo'llarni bosib o'tishini xohlaganlari bois qizni Farruxga beradilar. Axiy ham xuddi Farruxning

ahvoliga tushib, u bosib o'tgan yo'llarni bosib o'tganidan keyingina, ya'ni komillik darajasiga yetgandan keyingina go'zal qizni unga munosib ko'radi.

Bundan tashqari, Axiy va Farruxning ibratli xususiyatlarini sanab o'tadigan bo'lsak, Axiy, avvalo, o'zining xalqqa qilgan beminnat yordami bilan boshqalardan ajralib turadi. Navoiy ta'biri bilan aytganda, :

*”Muruvvat-barcha bermakdur, yemak yo'q,  
Futuvvat-barcha qilmakdur, demak yo'q”.*

Hikoyada Axiyni ham muruvvat, ham futuvvat egasi desak adashmagan bo'lamiz. Farrux ham saxovatda Axiydan qolishmaydi. U ham saroyiga qaytgandan so'ng, Axiyga o'xshab nochorlarga yordam berishni boshlaydi. Asarda, umuman olganda, hikoyada ikkala qahramonning ham oliyjanoblighi, hallollik va to'g'riligi eng e'tiborga molik jihatlaridir.

Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan qahramonlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlar bugungi kunda ham kuzatiladi. Navoiy har doim o'z zamonasidagilardan ilgari fikr yuritgan. Bu hikoya kelajak avlod uchun yaxshigina ibrat bo'la oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Do'stga sadoqatli bo'lish, hayotda har doim halol va rostgo'y bo'lish bu hikoyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 10 jild. "FAN". 1992.
2. A. Navoiy. Sab' ai sayyor. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. "FAN" 1992.
3. O. Madayev. Navoiy suhbatlari. O'qituvchi, 2018.
4. H. Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Toshkent. Abdulla Qodiriy, 1994.